



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY MAJLISI HUZURIDAGI FUQAROLIK JAMIYATI  
INSTITUTLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH JAMOAT FONDI MABLAG‘LARINI  
BOSHQARISH BO‘YICHA PARLAMENT KOMISSIYASINING  
QARORI**

2025-yil 30-aprel

01-10/17-son

Toshkent shahri

**Davlat granti tanlovlarini e‘lon qilish to‘g‘risida**


O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha parlament komissiyasi to‘g‘risidagi nizomning 5-bandiga muvofiq, Parlament komissiyasi

**QAROR QILADI:**

1. Oliy Majlisi huzuridagi jamoat fondining davlat granti tanlovi 1-14-illovalarga va Jamoat fondi alohida bo‘linmalari davlat granti tanlovlari 15-28-illovalarga muvofiq e‘lon qilinsin.
2. Davlat granti tanlovlariga Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi va uning alohida bo‘linmalari tomonidan e‘lon qilinadigan davlat granti tanlovlari yo‘nalishlari va ajratiladigan mablag‘lar miqdori 29-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi 2025-yil 1-maydan 30-maygacha davlat granti loyihalarini taqdim etish uchun “ngo.gov.uz” yagona elektron platformasi orqali ochiq tanlovlar tashkil qilsin.
4. Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi va uning alohida bo‘linmalari O‘zNNTMA va uning hududiy bo‘linmalari bilan birga davlat granti tanlovi e‘lon matnlarini OAVda keng yoritilishini ta‘minlasin hamda davlat granti talovlariga loyihalar taqdim etish bo‘yicha fuqarolik jamiyati institutlariga tushutirishlar bersin.
5. Parlament komissiyasining mas‘ul kotibi K.Tojiyev qaror nusxasini ijrochilarga yuborsin.
6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Parlament komissiyasi raisining o‘rinbosari A. Eshmuratov zimmasiga yuklatilsin

Asos: Parlament komissiyasining yig‘ilishi bayonnomasi.

**Parlament komissiyasi  
Raisi**

  
A. Shadmanov  
10/10/17

**“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ijtimoiy muammolarni hal etishga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish” mavzusidagi davlat granti  
tanlovi yo‘nalishlari to‘g‘risida  
MA’LUMOT**

<b>№</b>	<b>Tanlov yo‘nalishlari</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Mavjud muammo tavsifi</b>	<b>Muammoni bartaraf etish mexanizmi</b>	<b>Ajratiladigan mablag‘</b>
<b>1</b>	Xo‘jayli tumani “Qirqinshi” mahallasini infratuzilmasini yaxshilashga ko‘maklashish..	Xo‘jayli tumani “Qirqinshi” makon fuqarolar yig‘ini	“Qirqinshi” makon fuqarolar yig‘iniga tungi yoritish chiroqlarini o‘rnatish..	Makon fuqarolar yig‘inlari ko‘chalariga tungi yoritish chiroqlarini o‘rnatish	<b>200,0 mln.so‘m</b>
<b>2</b>	Qorao‘zek tumani “G‘arezsizlik” va “S.Kamalov” mahallalarini infratuzilmasini yaxshilashga ko‘maklashish	Qorao‘zek tumani “G‘arezsizlik” va “S.Kamalov” makon fuqarolar yig‘ini	“G‘arezsizlik” va “S.Kamalov” makon fuqarolar yig‘inlaridagi piyodalar ko‘prigini yangidan qurish.	Xar bir makon fuqarolar yig‘inlarida 1 ta piyodalar ko‘priglarini yangidan qurish.	<b>110,0 mln.so‘m</b>
<b>3</b>	Shumanay tumani “Mamiy”, Kegeyli tumani “Madaniyat”, Shumanay tumani “Nao‘riz” mahallalaridagi ijtimoiy ko‘makka muhtoj aholini sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish.	Shumanay tumani “Mamiy” makon fuqarolar yig‘ini	Fuqaro S. Qadirov ichak kasalligi bilan og‘riydi.	S. Qadirovda jarrohlik amaliyotini o‘tkazish.	<b>130,0 mln.so‘m</b>
		Kegeyli tumani “Madaniyat” makon fuqarolar yig‘ini	Fuqaro G. Davletbayevaning kichik farzandi A. Jaqsimuratovning oyog‘ida tug‘ma nuqsoni mavjud.	A. Jaqsimuratovda jarrohlik amaliyotini o‘tkazish.	
		Shumanay tumani “Nao‘riz” ovul fuqarolar yig‘ini	Fuqaro Q.Nag‘metullayev yuragida tug‘ma nuqsoni borligi sabab bugungi kunda jarrohlik amaliyotiga muhtoj.	Q.Nag‘metullayevda jarrohlik amaliyotini o‘tkazish.	
<b>4</b>	Shumanay tumani “Birlashik” mahallasi aholisini bandligini ta‘minlashga ko‘maklashish.	Shumanay tumani “Birlashik” ovul fuqarolar yig‘ini	Ovul fuqarolar yig‘inining 205 ta xonadon sug‘orish uchun suv bo‘lmaganligi uchun o‘z tomorqasidan foydalanish imkoniyati mavjud emas.	Zamonaviy elektr tejamkor 2 ta nasos o‘rnatish va 2 ta SHIMGE 500 32KBT suv nasos va yoniga kuyosh paneli o‘rnatish.	<b>170,0 mln.so‘m</b>
<b>5</b>	Kegeyli tumani “Qumshungul” va Konliko‘l tumani “Altin kel” ovul fuqarolar yig‘inlari aholisini ichimlik suv bilan ta‘minlash.	Kegeyli tumani “Qumshungul” ovul fuqarolar yig‘ini	“Qumshungul” ovul fuqarolar yig‘ini “Sorjap” ovulida bugungi kunda 23 ta xonadonda 97 ta aholi yashaydi. Ovulda ichimlik suvi muammo bo‘lim kelmoqda, Ovul maxallaning markaziy suv quvuridan 2 km uzoqlikda joylashgan. Ovulning asosiy muammosi aholiga ichimlik suvini tortish.	Muammoni hal etish uchun 2 km oraliqdan truba orqali suv tortish uchun turbalarini olib berish. Qazish ulash ishlari va aholiga toza ichimlik suvini yetkazib berish.	<b>200,0 mln.so‘m</b>

		Konliko'1 tumani "Altin k�l" ovul fuqarolar yig'ini	«"Altin k�l" ovul fuqarolar yig'ini "Haq jol" kuchasida bugungi kunda 27 ta xonadonda 108 ta aholi yashaydi. Kuchada ichimlik suvi muammo bo'lib kelmoqda, maxallaning markaziy suv quvuridan "Haq jol" kuchasi 700 metr uzoqlikda joylashgan. Ovulning asosiy muammosi ichimlik suvini tortishda.	Muammoni hal etish uchun 76 diametrli 700 metr truba orqali suv tortish uchun trubalarini olib berish va aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash.	
6	Beruniy tumani "Tinchlik" mahallasi hududida sport maydonchasi tashkil qilishga ko'maklashish.	Beruniy tumani "Tinchlik" ovul fuqarolar yig'ini	Ovul fuqarolar yig'ini hududida bolalar uchun bolalar maydonchalari mavjud emas.	Ovul fuqarolar yig'ini hududiga 1 ta bolalar sport maydonchasi qurish.	<b>120,0 mln.so'm</b>
7	"Korrupsiya-jamiyat taraqqiyotining kushandasidir" shiori ostida targ'ibot ishlarini olib borish.	"Korrupsiya-jamiyat taraqqiyotining kushandasidir" shiori ostida targ'ibot ishlarini olib borish.			<b>70,0 mln.so'm</b>
<b>Jami</b>					<b>1,0 mlrd.so'm</b>

**“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ijtimoiy muammolarni hal etishga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish” mavzusidagi davlat granti tanlovi  
yo‘nalishlari to‘g‘risida  
MA’LUMOT**

<b>№</b>	<b>Tanlov yo‘nalishlari</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Mavjud muammo tavsifi</b>	<b>Muammoni bartaraf etish mexanizmi</b>	<b>Ajratiladigan mablag‘</b>
<b>1</b>	Ellikqal’a tumani “Barhayot” mahallasida jinoyatchilikni oldini olish maqsadida xavfsiz hudud barpo etishga ko‘maklashish.	Ellikqal’a tumani “Barhayot” makon fuqarolar yig‘ini	(“Vaysxo‘ja” eski nomi) “Yetti chinor” ko‘chasidagi fuqarolarini tunda harakatlanish xavfsizligi ta‘minlanmagan.	(“Vaysxo‘ja” eski nomi) “Yetti chinor” ko‘chasiga tungi yoritgich chiroqlarini o‘rnatish.	<b>100,0 mln.so‘m</b>
<b>2</b>	Nukus tumani “Samanboy” mahallalari aholisini elektr energiyasi bilan ta‘minlashga ko‘maklashish.	Nukus tumani “Samanboy” makon fuqarolar yig‘inlari	Fuqarolar yig‘ini aholisi uzluksiz elektr energiya ta‘minoti bilan ta‘minlanmagan.	“Samanboy” OFY hududiga 1 dona elektr transformatorini o‘rnatish.	<b>100,0 mln.so‘m</b>
<b>3</b>	Taxtakopir tumani “O‘zbekiston” mahallasidagi ijtimoiy ko‘makka muhtoj aholini sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish.	Taxtakopir tumani “O‘zbekiston” makon fuqarolar yig‘ini	“Oltin Asr” ko‘chasi, 23-uyda yashovchi 2-guruh nogironi B. Allamberganova uyi ta‘mirlab holatga kelgan.	Uyining tom qismi shifrlash uchun 80 m <sup>2</sup> shifr olish va ichki ta‘mirlash.	<b>30,0 mln.so‘m</b>
<b>4</b>	Shumanay tumani “Qarabayli”, Beruniy tumani “Shabboz” mahallalari aholisini bandleligini ta‘minlashga ko‘maklashish.	Shumanay tumani “Qarabayli” makon fuqarolar yig‘ini	“Qarabayli” ovulida 120 ta xonadonda 596 nafar aholi istiqomat qiladi. Har bir xonadonda kamida 0,6-0,12 g. dan tomorqa yerlari mavjud. Eski nasos yaroqsiz ahvolga kelib, oqava suv muammosi qattiq qiyinchilik tug‘dirmoqda.	Zamonaviy elektr tejamkor 2 ta nasos o‘rnatishga ko‘maklashish.	<b>130,0 mln.so‘m</b>
		Beruniy tumani “Shabboz” ovul fuqarolar yig‘ini	Xonadonlar tomorqa yerlariga suv yetkazish uchun nasos qurish muammo bo‘lib kelmoqda.	Xonadonlar tomorqa yerlarini sug‘orish uchun 2 ta elektr tejamkor suv nasos o‘rnatib berish.	
<b>5</b>	“Nukus shahri “Shigis” va Xo‘jayli tumani “Nao‘riz”	Nukus shahri “Shigis” makon fuqarolar yig‘ini	Mahalla hududida bolalar maydonchasi mavjud emas..	Mahalla hududiga 1 ta bolalar maydonchasini qurish.	<b>140,0 mln.so‘m</b>

	mahallalarida bolalar maydonchasini qayta ta'mirlashga va tashkil qilishga ko'maklashish.	Xo'jayli tumani "Nao'riz" makon fuqarolar yig'ini	Makon fuqarolar yig'inidagi bolalar maydonchasi ta'mir talab holatda.	"Nao'riz" makon fuqarolar yig'inidagi 1 ta bolalar maydonchasini to'liq qayta ta'mirlash.	
6	"Korrupsiya-jamiyat taraqqiyotining kushandasidir" shiori ostida targ'ibot ishlarini olib borish.	"Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotining kushandasidir" shiori ostida targ'ibot ishlarini olib borish.			70,0 mln.so'm
<b>Jami</b>					<b>570,0 mln.so'm</b>